

## RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH -DAVR TALABI

Mutalov Abduaizim -

«ISFT» Instituti professori

**Annotatsiya:** Iqtisodiyotning globallashuvi va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallahuvi xozirgi davrida iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirishda xozirgi zamон talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga mamlakatimiz raxbaryati birinchidarajali muxim masala sifatida katta ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu maqolada shu vazifalarni bajarishning ayrim masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqobatbardosh, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, taqdimot usullari, ko'chma va ZUM da darslar.

**KIRISH**

Iqtisodiyotning globallashuvi, siyosiy voqealarning tez o'zgarishining iqtisodiy oqibatlari, yangi texnika va texnologik siyosatga o'tish, keskinlashib borayotgan raqobat, davlatning tartibga solish rolining kuchayishi, fors-major holatlar va bir qator boshqa muammolar kadrlardan shu sharoit talablariga tez moslashib samarali ishlab ketaoladigan kadrlarni talab qiladi.

Maqola mavzusining dolzarbligini Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib saylangan birinchi kunlaridan boshlab masalaga katta e'tiboridan bilsa bo'ladi "Biz ko'plab dasturlarni qabul qimoqdamiz, lekin ularni amalga oshiradigan tashabbuskor va vatanparvar, yuqori malakali kadrlar yetarlimi? Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislar oldimizga qo'yilgan bunday ulkan vazifalarni bajarishga qodirmi?"<sup>1</sup>- deb aytgan gaplari masalaning nixoyatda dolzarbligidan ham ko'rinish turipti. Ilmiy-texnika taraqqiyotining jaxonda revolyutsion portlash xarakteriga ega bo'lgan eng ilg'or va samarali yo'nalishi bo'lgan iqtisodiyot subyektlari faoliyatini raqamlashtirish zudlik bilan yangicha fikrlaydigan

<sup>1</sup> Prezident Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqidan. 2016 y.20 Oktabr

chuqur ma'lumotli o'z ishining ustasi bo'lgan kadrlarga bo'lgan talablarni keskin oshirib yubordi.

### Qo'llanilgan tadqiqot usullari

Ushbu maqolada tadqiqot qilishning guruxlash, taqqoslash va umumlashtirish kabi statistik usullaridan foydalanilgan.

#### Taxlil

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan dolzarb masalani bajarish uchun o'quv jarayonlarini tisimli ravishda ta'komillashtirish maqsadida yangidan-yangi innovatsion pedagogik va ahborot texnologiyalarini ishlab chiqish, shu sohada ilgor xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan ilg'or texnologiyalar va g'oyalarni O'zbekiston iqtisodiyotining va o'zbek xalqi mentalitetining o'ziga xos hususiyatlarini e'tiborga olib joriy etish talab qilinadi.

Hozirgi paytda oliy o'quv yurtlarining eng asosiy vazifalaridan biri - iqtisodiyotimizning barcha sohalari uchun oliy ma'lumotli o'z mutahassisligini sevuvchi, chuqur zamonaviy ilmiy va puhta amaliy (ayniqsa raqamlashtirish soxasida) bilimlarga ega bo'lgan raqobatbardosh mutahassislar tayyorlashdan iboratdir.

Bu yo'lida daslabki qadam bo'lib, oliy o'quv yurtlari talabalarining o'z bo'lajak mutahassisliklarini to'g'ri tanlashlari va mohiyatini to'liq tushunishlari, oliy o'quv yurtini bitirgach, bo'lajak ish joylarida har qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini, qanday karyeraviy va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkinligini bilishlari hizmat qiladi.

Bu soxada raqamlashtirilgan korxona va firmalar uchun xodimlar tayyorlash ayniqsa katta axamiyat kasb etadi.

Raqobatbardosh mutahassislarni tayyorlash uchun yuksak malakali o'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagoglarning roli beqiyosdir, ammo bu sohada hozirgi paytda ayrim kamchiliklar mavjud, yani, muhtaram Prezidentimiz ta'birlari bilan ayitganda "Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Ularga ta'lim berayotgan o'qituvchi va

professorlarning bilim va malakasi davr talabiga javob beradimi? Ming afsuski, bu savollarga javob berish oson emas”<sup>2</sup>.

Xozirgi paytda biz uchun yangi va dolzarb bo’lgan raqamlashtirish orqali iqtisodiyot

subyektlari faoliyatini transformatsiyalash masalalarini yetarli ilmiy-amaliy darajada o’qitaoladigan professor-o’qituvchilarning yetismasligi aniq muammoga aylangan.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishda professor-o’qituvchilarning o’z fanini hamda xozir juda katta odimlar bilan rivojlanayotgan raqamlashtirish loyihalarini ishlab chiqish va ularni joriy qilish bo’yicha hamda o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqr maxsus bilimlarga tga bo’lishi ayniqsa katta axamiyat kasb etmoqda, o’qitishning yangi ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyat bilan amalga oshira olish qobiliyatini, hamda talabalarning o’rganayotgan fanlarini zamonaviy talablarga javob beraoladigan darajada chuqr o’zlashtirayotganligini va kelajakda o’z faoliyatlarida qanchalik darajada qo’llay olishlarini aniqlashga imkon beradigan yangi nazorat usullarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda amalda qo’llaniladigan quyidagi samarali o’quv usullarni keltirish mumkin:

1. O’quv ishlarini yuksak professional darajada tashkil qilish imkonini beradigan o’quv - uslubiy majmular;
2. Oraliq nazorat turi sifatida taqdimot usulini qo’llash.

Bu usulning mohiati quyidagilardan iborat:

- har bir o’quv guruhi alohida kichik guruhchalarga bo’lib chiqiladi va har bir kichik guruhga 2 - 3ta talabalar kiritiladi;
- taqdimot uchun tegishli fan bo’yicha ishchi dasturiga kiritilgan mavzulardan birini va mavzuviy-taqvim rejani hisobga olib, kichik guruhga topshiriladi;

<sup>2</sup> Prezident Sh.M. Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi nutqidan. 2016 y.20 Oktabr

- guruhgaga kiritilgan talabalar o'zaro kelishib, guruhga biriktirilgan mavzuning har bir savolini alohida talabaga topshiradilar. Bu holda asosiy e'tiborni taqdimotni bir hil siyosatga bo'yusunib, o'zaro kelishgan holda tayerlanishiga qaratiladi, lozim bo'lganda ma'ruzachi yoki amaliyot o'qituvchisi taqdimot mavzulari va alohida savollari bo'yicha maslaxatlar berishlari mumkin. Shuningdek, o'qituvchilar taqdimotning o'z vaqtida tayyorlanishi va komissiya oldida taqdimotni o'tkazilishi ustidan nazorat qiladi.

Shu bilan birga, taqdimotning sifatiga va o'z vaqtida o'tkazilishiga talabalar birgalikda javobgar xisoblanadilar.

Taqdimot natijalarini baxolash bo'yicha shu fan ma'ruzachisi va kafedra a'zolaridan

iborat 3 kishilik komissiya tashkil qilinadi va komissiya taqdimotda qatnashayotgan har bir talabaning taqdimotda qatnashuvini alohida baholaydi va barcha taqdimot o'tkazib bo'lingandan keyin kichik guruhning barcha a'zolariga qo'yilgan baholarning o'rtacha raqamini hisoblab chiqib umumiy baho qyadi, shu baho shu guruhning barcha a'zolariga bir hil qo'yiladi.

3. Raqobatbardosh mutahassislar taylorlashning akademizm va professionalism usullarini uyg'unlashtirib olib borish.

Bu sohada mutahassislar tayyorlash ikki yonalishda amalga oshiriladi:

- tadbirkorlik o'yinlarini o'ynash usuli;
- amaliy darslarni joillardagi iqtisodiyot subyektlarida ko'chma darslar o'tkazish usuli;
- zamonaviy o'quv rejalarini va dasturlari raqobatbardosh mutahassislar tayyorlashda academizm bilan birga professionalizm ko'nikmalarini ham singdirib borishni taqozo etadi.

Yuqoridaagi usullarni amalga oshirish oliy o'quv yurtini bitirib kelgan mutahassisning hojalik yurituvchi sub'yeqtning ish faoliyatiga tezda katta qiyinchiliklarsiz integratsiyalashib ketishini ta'minlashi mumkin. Buning uchun turli hil tadbirkorlik o'yinlari stsenariylarini ishlab chiqilishi zarur va ular ho'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni,

subyektning shu davrdagi konkret sharoitlardan kelib chiqib muvaffaqiyatqiyatlari yechish imkonini beruvchi chora-tadbirlarni qo'llashni chuqur moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish yo'li bilan konkret choralar va yechimlarni qidirib topish, ylarning eng samarali yo'llarini tanlab ho'jalik yurituvchi subyektning amaliy faoliyatga joriy qilishni o'rgatishi lozim.

d). Amaliy darslarni joylardagi iqtisodiyot subyektlarida o'tkazish usulida talabalar navbat bilan subyektning har bir bo'limida shu bo'limning alohida hodimiga dublyor sifatida biriktiriladi va hodim bilan birga konkret vazifani bajarishda qatnashadi va shu bajargan ishining moxiyatini chuqur o'zlashtirib olishi lozim.

Semestr ohrida subyekt xodilari va amaliyot o'qituvchisi bilan birgalikda talabalar bilan yalpi suhbat o'tkazadi, talabalarda paydo bo'lgan savollarga javob beradilar va bo'lajak ish joylarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlarini tilab qiladilar va lozim bo'lsa shu inspeksiyaning o'ziga ishga taklif qilishlari mumkin.

### Xulosa:

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan raqobatbardosh mutahassislar tayyorlash bo'yicha samarali o'quv usullarini amalda qo'llash haqiqatda o'z mutahassisligini sevuvchi, jonkuyari va bilimdoni bo'lgan, zamonaviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan yuqori malakali oliy ma'lumotli professionallar yetishtirishga erishamiz, bu esa iqtisodoyotimiz yuksalishiga va aholi farovonligini oshishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senating qo'shma majlisidagi nutqi.- 2016 y.20 Oktabr
3. Mutalov A., Mtalova D. / Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. T.: Iqtisodiyot, 2013.

**Axborot manbalari:**

6. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
7. www.mf.uz – O‘zbekiston Moliya vazirligi rasmiy sayti.
8. www.soliq.uz – O‘zbekiston Davlat Soliq qo’mitasi rasmiy sayti
9. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligining rasmiy sayti.